

# "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalari "InnoWeek.Uz" xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligida ishtirok etdi

// 16 November 2024 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-tarmoq-korxonalari-innoweek-uz-xalqaro->



Ma'lumki, Davlatimiz rahbarining 2018-yil 27-apreldagi "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3682-son Qaroriga asosan har yili an'anaviy tarzda "InnoWeek.Uz" xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi o'tkazib kelinmoqda.

Ayni kunlarda poyxatimizda "InnoWeek.Uz xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi bo'lib o'tmoqda. Unda dunyoning 30 yaqin davlatlaridan jami 150 nafardan ortiq vakillar, xorijiy va mahalliy ekspertlar, tashkiltlar va korxonalar ishtirok etishmoqda.



"O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalari o'z innovatsion mahsulotlari bilan ishtirok etishmoqda.

Xususan, ilgari xorijdan import qilingan vanadiyli katalizator, ishlatilgan rux sorbentlaridan olingan rux oksidi hamda O'zkimyosanoat AJ va tarmoq korxonalari mutaxassislari tomonidan mahalliyashtirilgan rux nitrati va yana bir qancha innovatsion mahsulotlar namoyish qilinmoqda.

Xorijiy ilmiy-innovatsion markazlar, investitsiya jamg'armalari, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes inkubatorlar ishtirokida bo'lib o'tayotgan mazkur tadbir mavjud innovatsion texnologiyalar bilan tanishish barobarida sarmoyadorlarni jalb etish va ishonchli hamkorlar topish uchun muhim platforma hamdir.



Shu bilan birga "InnoWeek.Uz-2024" mutlaqo yangi innovatsion yondashuv va jarayonlar borasida o'zaro fikr almashish uchun ham maydon vazifasini o'tamoqda.

**"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati**